

UDC: 347.9:342(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUD SUDYALARI MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Abdullayeva Maftuna Murot qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,
ORCID: 0000-0002-4083-3176
e-mail: Mary.Lennox.92@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud hokimiyati mustaqilligi yuridik kategoriyasini keng qamrab olgan holda, uning asosiy jihatlari va chegaralari sud hokimiyatini tashkil etishning turli darajalari bilan bog'liq holda yoritilgan. Sud hokimiyati mustaqilligi tuzilmaviy jihatdan murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu sud hokimiyati fenomenining o'z murakkabligi bilan aloqador. Maqolada, shuningdek, sud hokimiyati mustaqilligi uning tashkil etilishining har bir darajasiga bog'liq holda o'rganilib, uning jihatlari, uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari tahlil etilgan. Konstitutsiyaviy sudning huquqiy pozitsiyasiga alohida e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mustaqilligi uni shakllantirish tartibi, tarkibi, vakolatlari bevosita Konstitutsiyada belgilab qo'yilganligi bilan ta'minlanadi. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunda konstitutsiyaviy sudlov mustaqilligining Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan kafolatlari sifatida konstitutsiyaviy sudni shakllantirish va uning faoliyati, saylash (tayinlash) tartibi uning prinsiplarida, sudyalari, ularning vakolat muddati, sudning huquqiy, ma'muriy va moliyaviy mustaqilligi, daxlsizligi va sudyalarni javobgarlikka tortishning alohida tartibi, ularni moddiy ta'minlash belgilangan. Konstitutsiyaviy sud sudyalari huquqiy holatini tartibga solishning to'liq emasligi ular mustaqilligi kafolatlarining izchil va samarali tizimi mavjudligi haqida gapirishga imkon bermaydi. Ushbu muammoning mumkin bo'lgan yechimlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: huquq ustuvorligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, sudyalari maqomi, sudyalarning mustaqilligi, sudyalari mustaqilligi kafolatlari.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ СУДЕЙ КОНСТИТУЦИОННОГО СУДА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), докторант
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному исследованию такой юридической категории, как независимость судебной власти, выделены ее основные аспекты и пределы применительно к различным уровням организации судебной власти. Независимость судебной власти представлена как структурно-сложное многоаспектное явление, что обусловлено сложностью самого феномена судебной власти. Свойство независимости исследуется применительно к каждому уровню организации (проявления) судебной власти, выделяются аспекты независимости, освещаются конституционно-правовые гарантии ее реализации, особое внимание уделяется правовым позициям Конституционного суда.

Независимость Конституционного суда Республики Узбекистан обеспечивается тем, что порядок его формирования, состав, компетенция определены непосредственно в Конституции. Предусмотренные Конституцией, Законом «О Конституционном суде Республики Узбекистан» гарантии независимости конституционного правосудия заключаются в принципах формирования и функционирования Конституционного суда, порядке избрания (назначения) судей, сроке их полномочий, нормативно-правовой, административной и финансовой независимости Суда, иммунитете и особом порядке привлечения к ответственности судей, их материальном обеспечении. Неполнота и непоследовательность регулирования правового положения конституционных судей не позволяют говорить о наличии стройной и эффективной системы гарантий их независимости. Поэтому предлагаются возможные пути решения этой проблемы.

Ключевые слова: верховенства права, Конституционный суд Республики Узбекистан, статус судей, независимость судей, гарантии независимости судей.

PROBLEMS OF ENSURING THE INDEPENDENCE OF JUDGES OF THE CONSTITUTIONAL COURT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abdullayeva Maftuna Murot kizi,

The Doctoral Student of
Tashkent State University of Law, PhD in Law

Abstract. This article is devoted to a comprehensive presentation of the legal category as the independence of the judiciary, its main aspects, and limits are highlighted concerning various levels of the organization of the judiciary. The independence of the judiciary is presented as a structurally complex multidimensional phenomenon, which is due to the complexity of the very phenomenon of the judiciary. Independence is studied in relation to each level of organization of the judiciary, aspects of independence are highlighted, constitutional and legal guarantees of its implementation are highlighted, and special attention is paid to the legal positions of the Constitutional Court. The independence of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan is ensured by the fact that the procedure for its formation, composition, and competence is determined directly in the Constitution. In the Law "On the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan", the guarantees of the independence of constitutional justice provided for by the Constitution and laws are in the principles of the formation and functioning of the Constitutional Court, the procedure for electing (appointing) judges, their term of office, legal, regulatory, administrative and financial independence of the Court, immunity and a special procedure for attracting to the responsibility of judges, their financial support. The incompleteness and inconsistency of the regulation of the legal status of constitutional judges do not allow us to speak about the existence of a coherent and effective system of guarantees of their independence. Possible solutions to this problem are proposed.

Keywords: rule of law, the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan, status of judges, the independence of judges, guarantees for the independence of judges.

Kirish

Qonun ustuvorligiga asoslangan har qanday tizimning zamirida odil sudlovni amalga oshirish doirasida inson huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan vakolatlar, moliyaviy resurslar, moddiy va boshqa ko'nikmalar bilan ta'minlangan kuchli sud

tizimi mavjud. Demokratik va huquqiy davlatda mustaqillik sud tushunchasining ajralmas qismidir: qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi hokimiyatga qaram bo'lgan sud – umuman sud hisoblanishi mumkin emas. Demak, sudlar mustaqilligining haqiqiy holati davlatning demokratik

yetukligini aks ettiradi va huquqiy davlatga xos xususiyatlarga ega yoki ega emasligini ko'rsatadi.

Hokimiyatlarning bo'linishi zamonaviy konstitutsiyaviylik va qonun ustuvorligining asosiy tamoyillaridan biridir [1]. "Agar sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan ajratilmagan bo'lsa, erkinlik yo'q. Agar u qonun chiqaruvchi hokimiyatga qo'shilsa, fuqarolarning yashash va erkinlik huquqi o'zboshimchalik bilan bo'ladi; chunki sudya qonun chiqaruvchi rolda bo'ladi. Agar u ijro etuvchi hokimiyatga topshirilsa, sudya zulm qiluvchi hokimiyatga ega bo'ladi [2, 294-b.]". Mazkur fikrlarni davom ettirib, agar (...) hokimiyat odil sudlov rolini o'z zimmasiga olsa, u shaxsiy huquqlarni jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, davlat manfaatlarini yuzasidan mulk, erkinlik masalalari nuqtayi nazaridan noto'g'ri hukm chiqarishga duchor bo'ladi va bu qonun o'rniga hakamlik qiladi. Adolat hokimiyat qo'lida bo'ladigan kunda fuqarolarning adolatga ega bo'lishiga kafolat ham, xavfsizlik ham bo'lmaydi [3, 18-b.]. Shu bois, birinchi navbatda, qonun ustuvorligining ikkita asosiy xarakterli tamoyili: davlat hokimiyati faoliyati samarali ishlashida hokimiyatlar bo'linishi va sud hokimiyati mustaqilligi muhimdir. Bu bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Odil sudlovning mustaqilligi, eng avvalo, hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan tashkiliy jihatdan ajratilgan sud hokimiyati mavjudligi bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida sudyalarning mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan. Sudyalarning mustaqilligi deganda, demokratik davlatning konstitutsiyaviy prinsipini

tushunish, unga ko'ra, siyosatchilar, davlat organlarining har qanday aralashuvidan himoyalaniş tushuniladi. Sudya mutlaq ma'noda mustaqil bo'lmay, uning mustaqilligi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda o'z-o'zidan maqsad emas. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi odil sudlovning xolisligi, beg'arazligi va adolatliligini ta'minlashdan iborat muhimroq konstitutsiyaviy maqsadga bo'ysunadi. Sudyalarning mustaqilligi jamiyatda aynan shunday darajada zarurki, u sudlarning konstitutsiyaviy vakolati va uni samarali amalga oshirish vazifasini talab qiladi [4, 24-b.]

Bir qator davlatlarning asosiy qonunida sud hokimiyati mustaqilligi bilan bir qatorda sudyalarning mustaqilligi prinsipi ham mustahkamlangan. Masalan, sudyalarning mustaqilligi, sud/sud hokimiyati mustaqilligi (Andorra, Belarusiya, Boliviya, Vengriya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Kuba, Lixtenshteyn, Nikaragua, Polsha, Portugaliya, Tojikiston, Estoniya); sudyalarning mustaqilligi (Avstriya, Argentina, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Moldova, Monako, Ruminiya, Turkmaniston); sud/sud tizimi mustaqilligi (Albaniya, Bolgariya, Braziliya, Gaiti, Gvatemala, Gonduras, Daniya, Dominikan Respublikasi, Kanada, Kosta-Rika, Makedoniya, Malta, San-Marino, Finlandiya, Fransiya, Xorvatiya, Shveysariya) va ularni to'ldiruvchi moddiy normalar mustahkamlangan (Ozarbayjon, Armaniston, Venesuela, Ispaniya, Litva, Peru, Slovakiya, Sloveniya, O'zbekiston, Chexiya) [5, 26-b.].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi savolga javob berishga harakat qilindi: 1) hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mazmuni, unda sud hokimiyatining o'rne qanday; 2) Konstitutsiyaviy sud mustaqilligini belgilovchi mezonlar qaysi?

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, tizimli metod, mantiqiy, statistik va funksional metodlar hamda qiyosiy huquqiy usul kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Sud hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sud o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning mustaqilligi prinsipi amalga oshirish konstitutsiyaviy sudlov organlarini tayinlash, ularning vakolatlari va davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'рни bilan belgilanadigan xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Huquqshunos olim E.P. Jurba nuqtayi nazariga ko'ra, sudyalar mustaqilligining zamonaviy konsepsiyasi bir-birini to'ldiradigan uch yo'nalishda rivojlanmoqda: moddiy-huquqiy, ijtimoiy-huquqiy va huquqni himoya qilish yo'nalishida [6, 13-b.].

Shu bilan birgalikda, huquqshunos olim A.V. Sixoskiy sud mustaqilligining ikki jihati ajratadi: tashqi va ichki. Agar tashqi tomon sudning sud funksiyalari va sud boshqaruvi sohalarida tashqi ta'sirlardan mustaqilligi, uning qoidalarni mustaqil ravishda qo'llash huquqini tavsiflasa, ichki tomon esa sudyalarning o'ziga bog'liq, ya'ni odil sudlovning inson omili bilan bog'liqligi. Muallif erkinlik darajasini aks ettiruvchi tashqi tomonga ustuvor ahamiyat beradi, ammo sudyalarning intellektual darajasi bilan belgilab qo'yilgan omillar sudyalarning tashqi tomonini bekor qilishi mumkinligini ta'kidlaydi [7, 13-b.].

Mazkur fikrga qo'shilgan holda, ta'kidlash joizki, sudyalarning ichki mustaqilligi faqat qonun doirasida va adolatli qaror qabul qilishi sud mustaqilligining eng muhim jihati aks ettiradi. Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi 1-bandi hamda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi talqiniga muvofiq, sudyalardan nafaqat mustaqil bo'lish talab etiladi, balki "sudyaning mustaqilligiga shubha tug'dirmaydigan yetarli kafolatlar berish" majburiyatini ham o'z ichiga oladi [6, 13-b.]. Polsha Respublikasi Konstitutsiyaviy tribunalining qarorlarida sud mustaqilligiga alohida tavsif berilgan bo'lib, Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi: 1) protsess ishtirokchilariga nisbatan xolislik; 2) organlarga (suddan tashqari muassasalarga) nisbatan mustaqillik; 3) sudyaning hokimiyat va boshqa sud or-

ganlari bilan munosabatlaridagi mustaqilligi; 4) siyosiy ta'sirlardan mustaqillik (xususan, siyosiy partiyalar ta'siridan); 5) sudyaning ichki mustaqilligi [8].

V.I. Anishina sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi mazmunida to'rtta asosiy element (mustaqillik mezonlari)ni ajratib ko'rsatadi: 1) institutsional (normativ asos va organlarning alohida tizimi); 2) funksional (hokimiyatning boshqa institutlari funksiyalaridan farq qiluvchi konstitutsiyaviy funksiyalari); 3) vakolat (o'z konstitutsiyaviy va huquqiy vakolatlarining mavjudligi, shu jumladan, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar ustidan nazorat); 4) resurs (o'z moliyaviy, kadrlar, moddiy-texnik salohiyat) [9, 48-b.].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qaror qabul qilar ekan, o'zining huquqiy nuqtayi nazarini amaliy maqsadga muvofiqlik mulohazalari, siyosiy moyilliklar va boshqa tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan holda ifodalaydi, deb belgilangan. Konstitutsiyaviy sud sudyalarning mustaqilligi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati Konstitutsiya va alohida qonun bilan tartibga solinadi; Konstitutsiyaviy sud sudyalarning mustaqilligi Konstitutsiyaga zid deb topilgan normativ hujjatlarni bekor qilish uchun asos bo'lgan qarorlarining yuridik kuchi, ularning umumiy ahamiyati, qat'iyligi va shikoyat qilishning mumkin emasligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi;

ikkinchidan, Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish kollegial tarzda amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud ishlarini ko'rib chiqishda har bir sudya ham, ishni ko'rayotgan butun tarkib ham mustaqil bo'lishi kerak. Bunda sudning mustaqilligi kollegiya tarkibiga kiruvchi sudyalarning mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy sudning ko'pchilik fikriga qo'shilmagan sudyasi

o'zining alohida fikrini yozma shaklda bayon etishga haqli (ayrim davlatlarda alohida fikrlar rasmiy e'lon qilinadi);

uchinchidan, Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z vakolatlari muddati davomida almashtirilmaslighi. Ya'ni sudyalarni boshqa sudyalik lavozimi yoki boshqa sudga o'tkazish faqatgina ularning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin;

to'rtinchidan, Konstitutsiyaviy sud sud-yalarining immunitet huquqiga egaligi, Konstitutsiyaviy sud sudyasi Konstitutsiyaviy sudning roziligsiz jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek, qamoqqa olinishi mumkin emas;

beshinchidan, konstitutsiyaviy sudlov organlari uchun boshqa sudlarga nisbatan siyosiy kuchlardan mustaqillik eng dolzarb muammo hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish doirasida ko'pincha siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar hal etilib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning oliy organlari vakillari jarayonda taraf sifatida ishtirok etadilar. L.M. Karapetyan ta'kidlaganidek, "Konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha sud organi o'zini siyosat muammosidan chetlab o'tolmaydi, chunki siyosat Konstitutsiyaning o'zida singdirilgan. U, shuningdek, qarama-qarshilik mamlakat konstitutsiyaviy tuzumiga tahdid soladigan hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi vositachilik missiyasidan o'zini chetlab o'tolmaydi, chunki uning vakolati mohiyatan uni himoya qilish bo'yicha eng yuqori sud organidir" [10, 64-b.].

Konstitutsiyaga muvofiqlik siyosiy va huquqiy islohotlarning turli yo'nalishlarini baholashda asosiy masala hisoblanadi. Ayniqsa, Konstitutsiyaviy sud uzoq muddatli manfaatlariga javob berishi va siyosatchilarning qisqa muddatli imkoniyatlarini oshirishiga yuqori darajada to'sqinlik qilishi kerak. "Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqqan siyosatchilar uning rolini belgilaydilar. Shuning uchun dizayn ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. De-

mak, markazlashtirishni tanlash, sudning lavozimi, hajmi, qo'llaniladigan tayinlash mexanizmi hamda mavhum va aniq nazorat bilan shug'ullanish vakolati bo'lajak loyihachilar duch kelishi mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan muammolarga javob berishi lozim. Biz Konstitutsiyaviy sudning rolini konstitutsiya ishlab chiqarishda yotgan siyosiy jarayonga e'tibor bermasdan turib tushuna olmaymiz [11]. Umuman olganda, sudlarni qonunning sof posbonlari yoki ba'zan sud faolligi bilan shug'ullanadigan innovatsion qonunchilar sifatida ko'rish mumkin. Konstitutsiyaviy sudlar ham bundan mustasno emas. AQSh modelida konstitutsiyaviy sudlar jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish uchun yangi qonunni samarali ishlab chiqadigan konstitutsiyaviy talqinlarni taqdim etadi. Sudning dadilligi siyosatchilar bilan jiddiy ziddiyatlarini keltirib chiqarishi mumkin, ammo, umuman, jamiyat tomonidan konstitutsiyaviy islohotlar uchun juda kam bosim mavjud.

Kontinental modelda Konstitutsiyaviy sudlar konstitutsiyalarni talqin qilishda ko'proq konservativ bo'lishga mo'ljallangan va faol qonun ijodkorligini qo'llashdan cheklanadi. Siyosatchilar bilan kichik mojarolar bo'lsa ham, tez-tez mazmunli konstitutsiyaviy islohotlar uchun jiddiy bosim bo'lishi mumkin. Ikkala modelda ham sud nazorati siyosati juda muhim rol o'ynaydi [12]. O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, Konstitutsiyaviy sud tom ma'noda huquq ijodkorligi bilan shug'ullanmaydi, biroq siyosiy jihatdan ta'sirdan to'la xoli emas. Xususan, 2019-yilda hukumat taklifiga binoan, O'zbekistonga tashrif buyurgan BMTning sudyalari va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayanning hisobotida "Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud raislari, rais o'rinbosarlari va sudyalarni saylash tartibi sudyalik lavozimlariga tayinlovlarni siyosiy lashtirishni kamaytirish maqsadida qayta ko'rib chiqilishi kerak. Agar Senat (Oliy Majlis) sudyalarni rasman tayinlash vakolatini o'zida saqlab qolsa, tayinlash Sudyalari oliy kengashi

taqdimnomasiga ko'ra, shaffof jarayon orqali amalga oshirilishi kerak, parlament bunga amalda amal qilishi lozim" [13].

Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanishi belgilangan. Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan professional organning mavjudligi yuqori malakali kadrlarni tanlab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur organning shakllanishida ham Prezident va Senatning ishtiroki mavjudligi Konstitutsiyaviy sudning siyosiy ta'sirlardan xoli ekanligini to'liq ta'minlab bera olishi masalasi o'rganilishi kerak. Shuningdek, yuridik fanlar nomzodi A. Rahimovning ta'biri bilan aytganda, "Konstitutsiyaviy sud «hujjatlarni sud qilishi» [14] qoidasidan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy sud sudyalarini tavsiya etish uchun tanlab olishda yuqori darajadagi mezonlarga amal qilish kerak. Bu borada, haqiqatan ham, Konstitutsiyaviy sud sudyalarini tayinlash shaffof bo'lishi lozim. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaviy sudda bo'sh (vakant) sudyalik lavozimlarini to'ldirish tartibi, muddati aniq yoritilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini nazariy jihatdan uch turga bo'lishimiz mumkin: institutsional, protsessual va ijtimoiy. Institutsional jihatdan sudyalarni tanlash va tayinlashning demokratik tizimini nazarda tutadi; sudyalarni almashtirib bo'lmasligi, daxlsizligi va ularning faoliyatiga aralashmaslikning konstitutsiyaviy va huquqiy institutlari. Protsessual kafolatlar, asosan, sud ishlarini ko'rib chiqishning kollegial shakli, o'z-o'zini rad etish instituti, sudlov normalari, protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan prinsip va boshqa tartib-taomillarni o'z ichiga ola-

di. Sudyalar mustaqilligining ijtimoiy kafolatlari sudyaning yuksak mavqeyiga mos keladigan davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minotini ta'minlashni nazarda tutadi. Mazkur kafolat adabiyotlarda "shaxsiy kafolatlar" sifatida ham keltiriladi. Shaxsiy mustaqillik yoki sudyaning huquqiy pozitsiyasiga asoslangan mustaqillik; bu sudlov organlari xodimlarini lavozimga tayinlash va ishdan bo'shatish, haq to'lash, baholash, ko'tarilish, nomuvofiqlik, tayinlash muddati, boshqa joyga o'tkazish va ishdan bo'shatishdan himoya qilish, intizomiy jazo choralari, shikoyatlarni ko'rib chiqish va boshqa elementlar bo'yicha huquqiy pozitsiyasiga kiritilgan kafolatlarga taalluqlidir [15, 19-b.].

Konstitutsiyaviy sud sudyasi faoliyatining eng muhim prinsiplaridan biri – bu Konstitutsiyaviy sud sudyasini almashtirib bo'lmasligidir. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi, qoida tariqasida, yetmish yoshni tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri ularning intizomiy javobgarligi hisoblanadi. Biroq bu to'g'rida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda biror-bir masala yoritilmagan. Sudyaning intizomiy javobgarligi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 11-bobida keltirilgan bo'lib, sudya faqat tegishli sudyalar malaka hay'ati qaroriga binoan intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi keltirilgan.

Biroq Konstitutsiyaviy sud sudyasining sodir etgan harakatlari sudyalik qasamyodini buzish deb hisoblansa, Qonunning 16-moddasiga muvofiq, vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari aniq keltirilgan bo'lsa-da, ularning intizomiy javobgarligi masalasi oqibatlari tegishli qonunda to'liq aks ettirilmagan. "Sudlar to'g'risida"gi Qonun tatbiq etiladigan bo'lsa, ogohlantirish, hayfsan, o'rtacha oylik

ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima, malaka darajasini bir pog'onaga pasaytirish, vakolatlarini mud-datidan ilgari tugatishni qachon va qay tartibda qo'llash masalasi ochiqlanishi lozim. Xususan, ogohlantirish asoslari, sudya tomonidan intizomiy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish, sudyaning yozma yoki og'zaki tushuntirish berish huquqi, masalani ko'rib chiqish muddati, ovoz berish tartibi va intizomiy jazoni bekor qilish shartlari aniq keltirilishi lozim.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning moddiy va ijtimoiy ta'minoti "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga havola qilinadi. Biroq mazkur qonunda ham bu masalalar batafsil keltirilmagan hamda qonunosti hujjatlariga havola qilinadi. Fikrimizcha, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning moddiy va ijtimoiy ta'minotiga oid kafolatlar batafsil qonun orqali tartibga solinishi lozim. Unda Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy kafolatlari aniq keltirilishi zarur. Masalan, ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan Konstitutsiyaviy sud sudyalari beriladigan imtiyozlar, iste'fodagi faxriy Konstitutsiyaviy sud sudyalari nisbatan beriladigan ta'minot, Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilganda beriladigan bir martalik to'lovlar, ularning oila a'zolariga beriladigan imtiyozlar qonun darajasida aniq keltirilishi kerak. Hozirgi kunda mazkur masalalar to'liq qamrab olinmagan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga havola qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatining eng muhim kafolatlaridan bo'lgan moddiy va ijtimoiy ta'minoti masalalari kengroq va batafsil yoritilishi mustaqilligini ta'minlashdagi muhim qadam

hisoblanadi. Xorij tajribasida oliy davlat organlarining qurilishi tizimini o'rganish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ko'plab aralash boshqaruv shaklidagi mamlakatlar vujudga kelmoqda. Hokimiyat tarmoqlarini tashkil etish jarayoni ham bevosita boshqaruv shakliga ta'sir qiladi [16].

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish, sudyalarning chinakam mustaqilligi va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o'tish hayotiy zaruratga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi mustaqilligi uni shakllantirish tartibi, tarkibi, vakolatlari bevosita Konstitutsiyada belgilab qo'yilganligi bilan ta'minlanadi. Shu bois Konstitutsiyaviy sud sudyalari mustaqilligini ta'minlash borasidagi tadqiqot doirasida quyidagilar taklif etiladi:

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda konstitutsiyaviy sudlov mustaqilligining Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan kafolatlari sifatida institutsional, protsessual va ijtimoiy kafolatlarini aniq yoritish;

Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish va uning faoliyati, saylash (tayinlash) tartibida xolislik va siyosiy ta'sirlardan xoli bo'lishni ta'minlash;

sudyalari faoliyati kafolatlariga oid normalarni institutsionallashtirish.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning har tomonlama mustaqilligini ta'minlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishdagi muhim shartlardan bo'lib, Konstitutsiyaviy sudning boshqa hokimiyat organlari ta'siridan xoli bo'lishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Troper M. Separation of powers. Montesquieu Electronic Dictionary. Available at: <http://dictionnairemontesquieu.ens-lsh.fr/index.php?id=286/>.
2. Montesquieu, De l'Esprit des lois [On the Spirit of Laws]. Ed. Garnier-Flammarion. Paris, 1979, vol. 1, book XI, chap. 6, pp. 294–295.
3. Vivien A.F.A. Études administratives [Administrative Studies]. Guillaumin & Cie Bookstore, Rue Richelieu. Paris, 1859, vol. 1, pp. 17–18.
4. Shelomanova L.V. Nezavisimost' sudey kak konstitutsionnyy printsip pravosudiya [Independence of judges as a constitutional principle of justice]. PhD thesis. Belgorod, 2013, p. 24.
5. Zakharov S.S. Samostoyatel'nost' i nezavisimost' pravosudiya kak bazovyye konstitutsionnyye printsipy [Autonomy and independence of justice as basic constitutional principles]. Abstract of PhD thesis. Belgorod, 2019, p. 26.
6. Zhurba Ye.P. Sovremennyye tendentsii razvitiya nezavisimosti sudey [Modern trends in the development of the independence of judges]. Saratov State Academy of Law, 2008, p. 13.
7. Tsikhotskiy A.V. Teoreticheskiye problemy effektivnosti pravosudiya po grazhdanskim delam [Theoretical problems of the effectiveness of justice in civil cases]. Novosibirsk, 2007, p. 13.
8. Independent, impartial and independent court. Available at: https://ccu.gov.ua/sites/default/files/ndf/IndependenceJudiciary_PL.pdf/.
9. Anishina V.I. Konstitutsionnyye printsipy kak osnova samostoyatel'nosti sudebnoy vlasti [Constitutional principles as the basis for the independence of the judiciary]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 2016, p. 48.
10. Karapetyan L.M. Garantii nezavisimosti organa konstitutsionnogo kontrolya [Guarantees of Independence of the body of Constitutional Control]. *Bulletin of the Constitutional Court of the Russian Federation*, 1997, no. 2, pp. 64–70.
11. Kommers D.P. The Constitutional Law of Abortion in Germany: Should Americans Pay Attention? *Contemp. Health L. & Pol'y*, 1994, vol. 10 (1). Available at: https://scholarship.law.nd.edu/law_faculty_scholarship/733/.
12. Easterbrook F. H. What's So Special About Judges? *Univ. of Colorado Law Rev.*, 1990, vol. 61, p. 773.
13. The judicial system of Uzbekistan cannot yet be considered independent. UN Special Rapport. Available at: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/07/16/review/>.
14. Raximov A. Sud faoliyatida tub o'zgarishlar davri yoxud «Konstitutsiyaviy sud nima ish qiladi?» [A period of radical change in the work of the judiciary or "What the Constitutional Court does?"]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/sud-faoliyatida-tub-ozgarishlar-davri-yoxud-konstituciaviy-sud-nima-ish-qiladi_278791/.
15. Verhey L.F.M. De onafhankelijkheid van de rechter naar Nederlands recht [The independence of the judge under Dutch law]. Preliminary advice for the Association for the comparative study of the law of Belgium and the Netherlands. Deventer, Kluwer, 2001, pp. 19–76.
16. Turdiev X. Hukumatni shakllantirish jarayoni davlat boshqaruv shaklining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida [The process of government formation as one of the main indicators of the form of state administration]. *Society and innovation*, 2021, vol. 2, no. 6, pp. 87–95.
17. Friedman B. The Politics of Judicial Review. *Texas Law Rev.*, 2005, vol. 84, p. 256.
18. George T.E., Epstein L. On the Nature of Supreme Court Decion of Supreme Court Decision Making. *American Political Science Rev.*, 1992, vol. 86, p. 323.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 10.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 163. TDYU tipografiyasida chop etildi.